


2022- yilning yanvar-mart oylarida Samarqand viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-martida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 10 086,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 6,0 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 111,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,2 % ga yetdi.




**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mird. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
I. YAHM, jami	8 569,5	10 086,5	106,0
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 301,3	9 753,6	105,8
mahsulotlarga sof soliqlar	268,2	332,9	112,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 301,3	9 753,6	105,8
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 217,5	2 489,0	101,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 117,8	2 569,1	110,1
sanoat	1 553,1	1 898,3	110,7
qurilish	564,7	670,8	108,6
xizmatlar	3 966,0	4 695,5	105,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	739,1	878,7	106,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	652,9	766,4	112,3
boshqa xizmat tarmoqlari	2 574,0	3 050,4	103,7

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 2 496,3 ming soʻnni tashkil etdi va bu koʻrsatkich oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 3,8 % ga yuqoridir.

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va oʼsish surʼatlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qoʼshilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 96,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʼrmon va baliqchilik xoʼjaligining YAHMning tarmoqlar boʼyicha tarkibidagi ulushi 25,5 % ni, sanoat tarmogʼi 19,5 % ni, qurilish 6,9 % ni va xizmatlar sohasi 48,1 % ni tashkil qildi.


**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi <i>qo’shilgan qiymati</i>	96,9	96,7
mahsulotlarga sof soliqlar	3,1	3,3
II. Tarmoqlarning yalpi <i>qo’shilgan qiymati</i>	100,0	100,0
<i>qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi</i>	26,7	25,5
sanoat (qurilishni qo’shgan holda)	25,5	26,4
sanoat	18,7	19,5
qurilish	6,8	6,9
xizmatlar	47,8	48,1
<i>savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar</i>	8,9	9,0
<i>tashish va saqlash, axborot va aloqa</i>	7,9	7,9
<i>boshqa xizmat tarmoqlari</i>	31,0	31,2

**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**



2021- yil




2022- yil

Yalpi qo'shilgan qiymat

Mahsulotlarga soʻf soliqlar


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 101,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 25,5 %), sanoatda – 110,7 % (19,5 %), qurilishda – 108,6 % (6,9 %), xizmatlar sohasida – 105,7 % ni (48,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 106,9 % (9,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,3 % (7,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,7 % dan (31,2 %) iborat bo'ldi.

**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,5 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,9 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 1,4 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 1,5 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 2,6 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 2,0 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.

2022- yilning yanvar-martida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-martida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 111,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichi xizmat ko'rsatish sohasida – 112,0 % va sanoat sohasida 110,4 % qayd etildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 63,8 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-martida – 66,2 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2021- yil **66,2 %**

2022- yil **63,8 %**